

XO‘JALIK JAMIYATI ISHTIROKCHILARI TOMONIDAN KORPORATIV HUQUQLARNING SUIISTE’MOL QILINISHI MASALALARI

Matkarimov Faridjon Umrbek o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Korporativ huquqiy munosabatlar haqida so‘z yuritilganda, avvalombor, ta’kidlash kerakki, bu tushuncha haqida nazariyachi olimlar o‘rtasida yagona fikr mavjud emas. Ba’zilari bu munosabatlarni tashkiliy munosabatlarga tenglashtirishsa, ba’zilari mulkiy munosabatlarning bir ko‘rinishi sifatida baholashadi. Yana bir toifa olimlar esa uni ham tashkiliy, ham mulkiy munosabatlar yig‘indisidan iborat ekanligini bildirishadi. Fikrimizcha, oxirgi variant bir muncha to‘g‘riroq. Chunki korporativ munosabatlar taraflarning tengligi prinsipiga asoslangan mulkiy va nomulkiy xarakterdagi munosabatlardan tashqari korporatsiyani tuzish, uning faoliyatini boshqarish, qayta tashkil etish, tugatish kabi tashkiliy masalalarni o‘z ichiga olgan tashkiliy xarakterdagi munosabatlardan ham iborat bo‘ladi.

Mulkiy xarakterdagi korporativ munosabatlarga korporatsiya ta’sischilari (ishtirokchilari, aksiyadorlari, a’zolari)ning korporatsiyani tashkil etish uchun muayyan mol-mulkularini yoki mablag‘larini ustav fondiga ulush sifatida berishi, korporatsiya tomonidan olingan foyda (daromad)ning taqsimlanishi, dividend yoki ulushlarning ajratilishi kabi holatlar bilan bog‘liq munosabatlarni kiritish mumkin.

Tashkiliy xarakterdagi korporativ munosabatlarga esa korporatsiya faoliyatini boshqarish, shu jumladan, boshqaruv organlari tomonidan muayyan masalalarni hal etish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazish, muhokama qilish, qarorlar qabul qilish, tegishli hujjatlarni tasdiqlash, ularning ijrosini nazorat qilib borish va hokazo shu kabi holatlar bilan bog‘liq munosabatlarni kiritish mumkin.

Korporativ munosabatlar deganda, korporatsiya ishtirokchilari (aksionerlari) bilan korporatsiya rahbariyati (direktorlar kengashi, rayosat) o‘rtasida, ishtirokchilar (aksionerlar) bilan ishtirokchilar (aksionerlar) o‘rtasida, korporatsiya ishchilari bilan korporatsiya rahbariyati (direktorlar kengashi, rayosat) o‘rtasida, korporatsiya bilan davlat, davlat organlari, kreditorlar, hamkorlar, boshqa tashkilotlar, fuqarolar o‘rtasida bo‘ladigan korporatsiya faoliyatiga bog‘liq munosabatlar tushuniladi [1-23 b].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 58-moddasiga ko‘ra ulushlarga (qo‘shilgan hissalariga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo‘lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo‘lgan tijoratchi tashkilotlar xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Muassislar (ishtirokchilar) qo‘shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo‘jalik shirkati yoki jamiyati o‘z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk mulk huquqi asosida unga tegishlidir.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari to‘liq shirkat, kommandit shirkat, mas’uliyati cheklangan yoki qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilishi mumkin [2].

Shulardan xo‘jalik jamiyatlari ya’ni mas’uliyati cheklangan yoki qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat va aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari, ularning huquqlari, ishtirokchilar tomonidan ushbu huquqlarning suiiste’mol qilinishi va ushbu holatlarda nizolarni hal etish masalalariga to‘xtalsak.

O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'RQ-310-II-sonli 2001-yil 6-dekabrda Qonuniga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning ishtirokchilari bo'ladilar.

Qonunning 8-moddasida jamiyat ishtirokchilarining huquqlari belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra:

Jamiyat ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:

ushbu Qonunda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

qonunchilikda va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

foydani taqsimlashda ishtirok etish;

jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o'z ulushini yoxud uning bir qismini ushbu Qonunda va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar ushbu Qonunda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish.

Jami ulushlari jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotgan yoxud o'z harakatlari (harakatsizligi) bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar.

Jamiyat ishtirokchilari qonunchilikda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin [3].

Yuqorida sanab o'tilgan ishtirokchilar huquqlarining deyarli har biri bilan bo'g'liq suiiste'molliklar va bular ortidan kelib chiqadigan nizolar (misol uchun belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish yoki foydani taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan nizolar va boshqalar) amaliyotda ko'p uchraydi.

Misol uchun, birgina, ishtirokchilar huquqlari bo'lgan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o'z ulushini yoxud uning bir qismini ushbu Qonunda va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish holatini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu holat bilan bog'liq nizolar ham yetarlicha hisoblandi.

Chunki, siz qandaydir jamiyat ishtirokchisi ya'ni ta'sischi bo'lsangiz, o'zingizga tegishli bo'lgan ulushlarni shundayligicha, odatiy tartibda sotib keta olmaysiz ya'ni bu jarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 216-224-moddalari va "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'RQ-310-II-sonli Qonunining 20-moddasiga ko'ra:

O'z ulushini (ulushning bir qismini) uchinchi shaxsga sotish niyatida bo'lgan jamiyat ishtirokchisi ulushning (ulushning bir qismining) sotilish bahosini va boshqa shartlarni ko'rsatgan holda, bu haqda jamiyatning qolgan ishtirokchilarini va jamiyatning o'zini yozma shaklda xabardor qilishi shart. Jamiyatning ustavida xabarnoma jamiyat ishtirokchilariga jamiyat orqali yuborilishi nazarda tutilishi mumkin. Ulushni (ulushning bir qismini) imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshirish istagida bo'lgan jamiyat ishtirokchisi o'z ulushini (ulushning bir qismini) sotishni taklif etayotgan jamiyat ishtirokchisini yetti kunlik muddatda

bu haqda xabardor qilishi, bunda sotishga taklif etilayotgan ulushni to'liq yoki uning muayyan qismini sotib olmoqchi ekanligini ko'rsatishi kerak. Agar kelib tushgan takliflarning umumiy miqdori sotilayotgan ulushning miqdoridan oshmasa, ishtirokchilardan har biri ulushning o'z xabarnomasida ko'rsatgan qismini sotib oladi. Agar ulushning qolgan qismi uchinchi shaxs ixtiyoriga o'tkazilguniga qadar jamiyat ishtirokchilaridan qo'shimcha takliflar kelib tushmasa, bunday qism uchinchi shaxsga o'tkazilishi mumkin. Agar kelib tushgan takliflarning umumiy miqdori sotilayotgan ulush (ulushning bir qismi) miqdoridan oshsa, ishtirokchilar, agar jamiyatning ustavida yoki jamiyat ishtirokchilarining kelishuvida boshqacha taqsimlash nazarda tutilmagan bo'lsa, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o'z ulushlari miqdorlariga mutanosib ravishda sotib oladi.

Jamiyat ishtirokchilari va (yoki) jamiyat sotish uchun taklif qilinayotgan butun ulushni (ulushning bir qismini) sotib olishda imtiyozli huquqdan shunday xabar berilgan kundan e'tiboran bir oy ichida foydalanmagan taqdirda, agar jamiyat ustavida yoki jamiyat ishtirokchilarining kelishuvida boshqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, ulush (ulushning bir qismi) jamiyatga va uning ishtirokchilariga ma'lum bo'lgan bahoda va shartlarda uchinchi shaxsga sotilishi mumkin.

Ulush (ulushning bir qismi) sotib olishning imtiyozli huquqi buzilgan holda sotilgan taqdirda, jamiyatning istalgan ishtirokchisi va (yoki) jamiyat, agar jamiyatning ustavida ulushni (ulushning bir qismini) sotib olishda jamiyat imtiyozli huquqqa ega ekanligi nazarda tutilgan bo'lsa, bunday buzilishni bilgan yoxud uni bilishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida sotuvchining huquqlari va majburiyatlarini o'ziga o'tkazishni sud tartibida talab qilishga haqli. Mazkur imtiyozli huquqdan boshqaning foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyatning ustavida jamiyat ishtirokchisining ulushini (ulushining bir qismini) sotishdan boshqacha tarzda uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish uchun jamiyatning yoki jamiyat ishtirokchilarining roziligini olish zarurligi nazarda tutilishi mumkin [4].

Bundan ko'rinadiki, siz jamiyatdagi o'z ulushingizni sotishdan oldin jamiyatning boshqa ishtirokchilarini xabardor qilishingiz kerak bo'ladi. Aks holda, siz tomoningizdan tuzilgan ulush oldi sotdi shartnomasi sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bu kabi holatlar amaliyotda tez tez uchrab turadi ya'ni ishtirokchilar o'z ulushlarini tezroq va ko'proq foyda qilish uchun uchinchi shaxslarga turli xil shartlarda sotish bugungi kunda ko'p uchramoqda.

Ushbu holatda savol tug'ilishi mumkin, ya'ni jamiyat ta'sischisi bitta shaxs bo'lsachi, unda bunaqangi muammo bo'lmaydi-ku?! To'g'ri, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi

O'RQ-310-II-sonli Qonunning 7-moddasiga asosan jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilishi mumkin bo'lib, u jamiyatning yagona ishtirokchisiga aylanadi. Jamiyat keyinchalik bir ishtirokchisi bo'lgan jamiyatga aylanishi mumkin. Bunda, ta'sischi yuqoridagi kabi ulush oldi sotdisi oldidan hech kimni xabardor qilishi shart emas.

Biroq, boshqa tomondan, bugun amaliyotda shu kabi yagona ta'sischisi bo'lgan yoki bir necha ishtirokchilar ulushi evaziga ta'sis etilgan jamiyatlar tomonidan qasddan jamiyatni to'lovga qobilyatsizlik holatiga olib kelish kabi holatlar ko'plab uchramoqda.

Tasavvur qiling A ismli shaxs "Orzu" nomli ishlab chiqarishga ixtisoslashgan MCHJ tashkil etdi. U o'z tadbirkorligini amalga oshirishda bir qancha boshqa tadbirkorlar bilan turli mazmundagi shartnomalar tuzdi va bu shartnomalar uchun oldindan to'lovlarni ham olib bo'ldi. Biroq, u ushbu summalarni jamiyat rivoji yoki ishlab chiqarish uchun emas aksincha, boshqa maqsadlarda, misol uchun yana boshqa MCHJ tashkil etish uchun yoki shaxsiy maqsadlarda ishlatdi. Tasavvur qiling A ismli shaxs xuddi shu tartibda MCHJ ochadi qarz oladi va u pulga yana boshqa MCHJ ochadi yana qarz oladi yoki davlat tomonidan turli

imtiyozlardan foydalanadida mo'maygina daromad qilib daromadlarini MCHJ hisob raqamiga emas, aksincha jismoniy shaxs sifatidagi shaxsiy hisob raqamiga o'tkizadi yoki boshqa yo'sinda ishlatib yuboradi. Keyinchalik, yuqorida boshqa MCHJlar bilan imzolagan shartnomalarni bajarish payti kelganda esa MCHJda bularni bajarish imkoniyati bo'lmaydi. Sababi, mablag' yo'q, xom-ashyo yo'q, jamiyat to'lovga qobilyatsiz holatda va bu o'z o'zidan shartnoma shartlari bajarilishiga imkon bermaydi.

Afsusuki, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'RBQ-310-II-sonli Qonunning 3-moddasida shunday norma mavjud:

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Bundan ko'rinadiki, yuqoridagi holatda "Orzu" MCHJ o'z majburiyatlari yuzasidan xuddi mustaqil bir shaxs sifatida o'z balansida, mulkida mavjud moddiy boylıklar bilan javob beradi. Uning ta'sischi hisoblangan A shaxsning shaxsiy mulklari hisobidan ushbu MCHJ qarzlarini yoki majburiyatlarini qoplashni so'rab sudga murojaat qilish sud tomonidan yuqoridagi Qonun normasiga muvofiq da'vo arizasining rad qilinishiga sabab bo'ladi. Chunki, MCHJ hamma majburiyalari uchun faqat o'z mulki bilan javobgar sanaladi.

Bu holat aksiyadorlik jamiyatlariga ham taalluqli bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 370-son Qonunining

4-moddasida ham shunday belgilangan:

Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarining o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, yuqoridagi kabi huquqni suiiste'mol qilish holatiga aksiyadorlik jamiytlarida ham duch kelishimiz mumkin [5].

Xo'sh, ushbu holat qonunchiligimizda qanday hal etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobilyatsizlik to'g'risida" 2022-yil 12-apreldagi O'RBQ-763-sonli Qonunining 70-moddasiga ko'ra agar yuridik shaxsning to'lovga qobilyatsizligi shu yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki egasining yoxud qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, yuridik shaxsning

mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin [6].

Ushbu Qonunga binoan yuqoridagi holatda A shaxsga "Orzu" MCHJ majburiyatlarini shaxsan bajarishni yuklash mumkin qachonki jamiyatning to'lovga qobilyatsizligi haqiqatan A shaxsning g'ayriqonuniy, qasddan qilgan harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa.

Biroq, ushbu vaj bilan sudga murojaat qilgan taqdiringizda ham buni isbotlash lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining

68-moddasiga muvofiq ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak [7].

Yuqoridagi holatda, A shaxsning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari tufayli "Orzu" MCHJ to'lovga qobilyatsizlik holatiga kelib qolganligini isbotlash, albatta, da'vogar ya'ni kreditorlar zimmasiga yuklatiladi. Bu holatni isbotlash esa aynan da'vogar uchun anchagina qiyin holat hisoblanadi nazarimizda.

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi va Jinoyat kodekslariga asosan:

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yoki yuridik shaxs mansabdor shaxsi, muassisi (ishtirokchisi) yoxud mol-mulkining mulkdori tomonidan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan qasddan bankrotlikka olib kelish, ya'ni to'lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki oshirish, ushbu yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning barqaror iqtisodiy nochorligiga (bankrotligiga) olib kelsa, kreditorlarga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan [8] [9].

A shaxsning xatti-harakatlariga aybdor sifatida ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik ayblovi ostida baho berilsa, balkim bunda isbotlash birmuncha osonlashar, chunki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan dalillarni yig'ish, to'plash yuqoridagi kreditorlarning dalillar to'plashiga qaraganda samarali, sababi ularda jamiyatga taalluqli hamma hujjatlar tanishish imkoniyati mavjud.

Biroq, bu jarayon murakkab hisoblanib, bir muncha vaqt olishi tabiiy va bu o'z navbatida kreditorlar huquqlarining buzilishining davom etishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko'rishning o'ziga xos jihatlari [Matn]: sudyalar va aholi uchun amaliy qo'llanma / M.Saidov. –Toshkent: , 2019. – 196 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/111189>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525>
4. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525>
5. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-aprelda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 370-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-2382409>;
6. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-aprelda "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida" O'RQ-763-sonli Qonuni;
7. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi <https://lex.uz/acts/-3523891>;
8. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi. <https://lex.uz/docs/97664>;
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeski <https://lex.uz/docs/111453>